



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№7

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

7-jild
7-son
Iyul, 2026

July, 2026
Volume 7
Number 7

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
Economy of the region and industry
Экономика региона и отрасли



BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI

Qodirov Abdurashid Madjidovich, Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li

ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭКОНОМИКИ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Кадыров Абдурашид Маджидович, Вайскулов Рамазон Алишер угли

TRANSFORMATION OF THE ECONOMY OF THE KASHKADARYA REGION UNDER CONDITIONS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Abdurashid Madjidovich Qodirov, Ramazon Alisher o'g'li Vayskulov

Received: July 3, 2026 Revised: July 6, 2026 Accepted: July 9, 2026 Published: August 1, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotining barqaror rivojlanish sharoitidagi transformatsiya jarayonlari tahlil qilingan. Hudud iqtisodiyotining tarkibiy o'zgarishlari, raqamli transformatsiya va investitsion faollikning ta'siri ilmiy asosda o'rganilgan. Shuningdek, viloyat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy transformatsiya, barqaror rivojlanish, Qashqadaryo viloyati, raqamli iqtisodiyot, investitsiyalar, diversifikatsiya, yashil iqtisodiyot, raqobatbardoshlik, sanoat rivojlanishi, eksport salohiyati.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы трансформации экономики Кашкадарьинской области в условиях устойчивого развития. Научно исследованы структурные изменения экономики региона, влияние цифровой трансформации и инвестиционной активности. Также разработаны предложения по диверсификации экономики и повышению конкурентоспособности региона.

Ключевые слова: экономическая трансформация, устойчивое развитие, Кашкадарьинская область, цифровая экономика, инвестиции, диверсификация, зеленая экономика, конкурентоспособность, промышленное развитие, экспортный потенциал.

Annotation: This article analyzes the transformation processes of the economy of the Kashkadarya region under conditions of sustainable development. Structural changes in the regional economy, the impact of digital transformation and investment activity are scientifically studied. The paper also provides recommendations for diversifying the economy and increasing regional competitiveness.

Key words. economic transformation, sustainable development, Kashkadarya region, digital economy, investment, diversification, green economy, competitiveness, industrial development, export potential.

■ KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, raqamli transformatsiya, ekologik muammolarning kuchayishi hamda global iqtisodiy beqarorlik sharoitida barqaror rivojlanishni ta'minlash har bir mamlakat va hudud oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan iqtisodiyotni transformatsiya qilish, ya'ni uning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda resurslardan oqilona foydalanish hududlarning uzoq muddatli

raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'ngi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar hududlarni kompleks rivojlantirish, investitsion jozibadorlikni oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va xizmatlar sohasini kengaytirishga qaratilgan. Bu borada Qashqadaryo viloyati o'zining tabiiy resurslari, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasi salohiyati bilan respublika iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Viloyatning iqtisodiy imkoniyatlari yuqoriligi hamda mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-



martdagi “Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish” to’g’risidagi PQ-96-sonli Qarori qabul qilingan. Mazkur qarorda yalpi hududiy mahsulot hajmini 8,2 % ga, sanoat ishlab chiqarish hajmini — 8,6 % ga, bozor xizmatlari hajmini — 15,9 % ga, qishloq xo’jaligi mahsulotlari etishtirish hajmini — 5,8 % ga va qurilish sohasini esa 13,2 % ga o’sishini ta’minlash[1] kabi vazifalar belgilanganligi mintaqada tarkibiy o’zgarishlar sodir bo’lishini belgilab beradi. Biroq hudud iqtisodiyotining ayrim tarmoqlarga yuqori darajada bog’liqligi, innovatsion faollikning etarli emasligi hamda hududlararo iqtisodiy rivojlanishdagi tafovutlar iqtisodiy transformatsiya jarayonlarini yanada jadallashtirishni taqozo etib, bu yo’nalishda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishini ham dolzarb yo’nalishlardan biri sifatida e’tirof etish mumkinligini belgilaydi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

So’ngi yillarda hududlarda barqaror rivojlanish hamda hududiy iqtisodiyot transformatsiyasi bilan bog’liq tadqiqot ishlari o’ziga xos ustuvorlikka ega bo’lmoqda.

F.Mkann zamonaviy hududiy rivojlanish siyosatida iqtisodiy o’sishni ta’minlash bilan bir qatorda ekologik barqarorlik, ijtimoiy inklyuzivlik va hududlar o’rtasidagi tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan kompleks yondashuv zarurligini asoslab, hududlarning transformatsiyasi mahalliy imkoniyatlar va institutsional salohiyatni rivojlantirish orqali amalga oshirilishi kerakligini ta’kidlaydi[2].

A.Tatarkinning fikricha, hududlarning barqaror rivojlanishi ularning o’zini o’zi rivojlantirish salohiyatiga bog’liq. Olim hudud iqtisodiyotining transformatsiyasi mahalliy resurslardan samarali foydalanish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va institutsional boshqaruvni takomillashtirish orqali amalga oshirilishini ta’kidlagan holda, hududlar iqtisodiy o’sishning passiv obyekti emas, balki o’z rivojlanish strategiyasini mustaqil shakllantira oladigan faol ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir degan xulosa beradi[3].

Rossiyalik yana bir olim M.Mixaylichenko hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda makon (fazoviy) omilning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi. Muallif hududlar o’rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish va hududlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlashning asosiy shartlaridan biri ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, hududlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun ularning tabiiy, iqtisodiy va inson resurslaridan kompleks foydalanish hamda hududiy rivojlanishni strategik rejalashtirish zarurligi qayd etiladi. Ushbu yondashuv hudud iqtisodiyotining transformatsiyasi iqtisodiy o’sish bilan bir qatorda ijtimoiy va institutsional o’zgarishlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayon ekanligini ilmiy asoslab beradi [4].

A.Sodiqov va N.Nazarovning fikriga ko’ra barqaror rivojlanish maqsadlari va strategiyalarini aniqlashda barqaror rivojlanish jarayonini mintaqadagi barcha sohalar rivojlanishida maqbul yo’llarni ishlab chiqish hamda ularning izchilligini ta’minlash zarurati

tug’iladi. Shu bilan birga, ular hududlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun mavjud resurslardan samarali foydalanish, innovatsiyalarni joriy etish va institutsional islohotlarni kuchaytirish zarurligini ta’kidlab o’tadilar[5].

Barqaror rivojlanish konsepsiyasida ekologik omillar ham alohida o’rin tutadi. I.Xotamov va Y.Najmiddinov past uglerodli iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirish orqali iqtisodiy o’sish va ekologik barqarorlik o’rtasidagi muvozanatni ta’minlash mumkinligini ko’rsatadilar. Ularning fikricha, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish hududlar transformatsiyasining muhim yo’nalishlaridan biridir[6].

Ahmedov va Tursunova esa hududiy islohotlar aholining farovonligi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi o’rni baholab, hududlarning ichki salohiyatidan samarali foydalanish iqtisodiy transformatsiyaning muhim sharti ekanligini ilmiy asoslab berishgan[7].

Qashqadaryo viloyati misolida olib borilgan tadqiqotlarda Fayzullayev va Abdiholiqova viloyat sanoat tarmoqlarining rivojlanish istiqbollari tahlil qilib, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kichik sanoat zonalarini rivojlantirish hamda investitsion muhitni yaxshilash hudud iqtisodiyotining transformatsiyasiga xizmat qilishini ko’rsatgan[8].

Mavjud ilmiy ishlarda hududiy barqaror rivojlanishning nazariy va uslubiy jihatlarini keng yoritilgan bo’lsa-da, aynan Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotining barqaror rivojlanish sharoitidagi kompleks transformatsiyasi, uning tarkibiy o’zgarishlari va istiqbolli rivojlanish yo’nalishlari etarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur maqola ana shu ilmiy bo’shliqni qisman to’ldirishga qaratilgan.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tahlil va sintez, qiyosiy, SWOT tahlil, statistik usullar, tizimli yondashuv kabi usullardan foydalanildi. Tadqiqot manbalari sifatida O’zbekiston Respublikasi milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari qo’llanildi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslarga boy hudud bo’lib, neft-gaz sanoati, qishloq xo’jaligi, qurilish materiallari ishlab chiqarish va qayta ishlash tarmoqlari iqtisodiyotning asosiy yo’nalishlari tashkil etadi. 2025-yilda Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotida barqaror o’sish tendensiyasi kuzatildi. 2026-yil 1-yanvar holatiga viloyatning doimiy aholisi 3 716 949 kishini tashkil etgan bo’lsa, yalpi hududiy mahsulot hajmi o’tgan yilga nisbatan 6,8 %ga oshgan. Shuningdek, sanoat ishlab chiqarishi 7,2 %ga, qurilish ishlari hajmi 10,8 %ga, chakana savdo tovar aylanmasi 8,6 %ga, bozor xizmatlari hajmi esa 13,6 %ga o’sdi.

Qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligida 4,3 %lik o’sish qayd etildi, bu esa hudud iqtisodiyotining tarmoqlar bo’yicha muvozanatli rivojlanayotganini ko’rsatadi. Tashqi savdo aylanmasi 0,3 %ga oshgan bo’lsa-da, eksport hajmining 0,9 %ga kamayishi va importning 1,1 %ga ortishi eksport salohiyatini yanada kuchaytirish hamda yuqori qo’shilgan qiymatga ega



mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish zarurligini ko'rsatadi[9]. 2026-yil 1-yanvar holatiga viloyatda 30 424 ta korxona va tashkilot faoliyat yuritayotgani tadbirkorlik muhitining rivojlanib borayotganini ifodalaydi.

Mazkur ko'rsatkichlar Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilayotgan iqtisodiy transformatsiya jarayonlari ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va tadbirkorlik faolligining ortishi orqali hududning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Biroq iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarga yuqori darajada ixtisoslashgani hududning tashqi iqtisodiy omillarga ta'sirchanligini oshiradi. Shu sababli hudud iqtisodiyotini transformatsiya qilishda sanoatni diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda xizmatlar sektorining ulushini oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida raqamli transformatsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruvi, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasiga keng joriy etish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, mehnat unumdorligini oshiradi hamda boshqaruv samaradorligini yaxshilaydi. Shu bilan birga, elektron

davlat xizmatlari va raqamli platformalarning rivojlanishi tadbirkorlik subyektlari uchun qulay institutsional muhitni shakllantiradi.

Hudud iqtisodiyotining transformatsiyasini baholashda yalpi hududiy mahsulot hajmi, sanoat ishlab chiqarishi, investitsiyalar, eksport, bandlik, mehnat unumdorligi, innovatsion faoliyat va ekologik ko'rsatkichlar tizimidan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur ko'rsatkichlarning dinamik tahlili transformatsiya jarayonining natijadorligini aniqlash hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotining transformatsiyasi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ustuvorliklarning o'zaro uyg'unligini ta'minlashga asoslanishi zarur. Innovatsiyalarni rivojlantirish, investitsiya faolligini oshirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish hamda yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish hududning uzoq muddatli raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishining asosiy omillari hisoblanadi.

Viloyatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi sharoitida aniq ma'lumotlarni 1-jadvalda keltirilgan SWOT tahlil asosida aniq ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Transformatsiyalashayotgan iqtisodiyot sharoitda Qashqadaryo viloyatiining SWOT tahlili

Kuchli tomonlari (S):	Zaif tomonlari (W):
- Viloyat tabiiy resurslarga (tabiiy gaz, neft, mineral xomashyo, qurilish materiallari va er resurslari) boy bo'lib, iqtisodiy transformatsiya uchun mustahkam resurs bazasiga ega. - Sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasini parallel rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy salohiyat mavjud. - Yirik energetika va sanoat korxonalari hudud iqtisodiyotining transformatsiyasiga tayanch bo'lib xizmat qiladi. - Geografik joylashuv va rivojlanayotgan transport infratuzilmasi ichki va tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish imkonini beradi.	- Iqtisodiyot tarkibida xomashyo qazib olish tarmoqlarining ulushi yuqori bo'lib, yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi ishlab chiqarish etarli darajada rivojlanmagan. - Raqamli texnologiyalar va innovatsion ishlab chiqarishning joriy etilish darajasi ayrim tarmoqlarda pastligicha qolmoqda. - Transport-logistika infratuzilmasining ayrim hududlarda rivojlanmaganligi investitsiya va eksport imkoniyatlarini cheklaydi. - Malakali muhandislik va IT yo'nalishidagi kadrlar etishmovchiligi innovatsion rivojlanish sur'atlarini sekinlashtirmoqda.
Imkoniyatlar (O):	Xavf-xatarlar (T):
- Sanoatni diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi ishlab chiqarishlarni rivojlantirish - Raqamli iqtisodiyot, "yashil iqtisodiyot" va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish. - Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratish. - Turizm, logistika va xizmatlar sektorini rivojlantirish orqali hudud iqtisodiyotining tarkibini diversifikatsiya qilish..	- Jahon bozorlarida energiya resurslari narxlarining o'zgaruvchanligi hudud iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. - Iqlim o'zgarishi va suv resurslari tanqisligi qishloq xo'jaligi hamda oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. - Global iqtisodiy inqirozlar va geosiyosiy beqarorlik investitsion faollikning pasayishiga olib kelishi mumkin. - Atrof-muhitga antropogen bosimning ortishi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni murakkablashtirishi mumkin.

SWOT tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyati iqtisodiy transformatsiyasining asosiy ustunligi tabiiy resurslar salohiyati, sanoat bazasi va qishloq xo'jaligi imkoniyatlarining yuqoriligidadir. Biroq iqtisodiyotning xomashyo yo'nalishiga nisbatan yuqori darajada ixtisoslashgani, innovatsion faoliyatning etarli emasligi hamda logistika va raqamli

infratuzilmadagi ayrim muammolar hududning barqaror rivojlanish sur'atlarini cheklamoqda. Shu bilan birga, sanoatni diversifikatsiya qilish, "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish va investitsion jozibadorlikni oshirish orqali viloyat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini sezilarli darajada kuchaytirish mumkin. Mazkur



yoʻnalishlarda kompleks islohotlarni amalga oshirish Qashqadaryo viloyatining uzoq muddatli barqaror iqtisodiy oʻsishini taʼminlashning muhim omili hisoblanadi

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy transformatsiya jarayonlari barqaror rivojlanishning muhim omili ekanini koʻrsatdi. Viloyatning tabiiy resurslarga boʻyligi, sanoat va qishloq xoʻjaligi salohiyati uning iqtisodiy oʻsishi uchun asos boʻlsa-da, iqtisodiyotning xomashyo yoʻnalishiga bogʻliqligi, innovatsion rivojlanish va raqamli infratuzilmaning etarli emasligi transformatsiya jarayonlarini cheklamoqda. Shu sababli hududni diversifikatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda quyidagi takliflarni bildiramiz:

– Hudud iqtisodiyotini xomashyo yoki yarimtayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish yoʻnalishidan yuqori qoʻshilgan qiymatli ishlab chiqarishga bosqichma-bosqich oʻtkazish.

– Sanoat va xizmatlar kabi yuqori texnologiyalar talab etadigan sohalarida raqamli texnologiyalar hamda innovatsion boshqaruvni keng joriy etish va ularni qoʻllab-quvvatlash.

– Mahalliy darajada va xalqaro darajada eksportni diversifikatsiya qilish va hudud boʻylab logistika infratuzilmasini takomillashtirish.

– “Yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish va energiya tejankor texnologiyalarni iqtisodiyotning barcha sohalarida keng qoʻllash.

Mazkur yoʻnalishlarning izchil amalga oshirilishi Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotining tarkibiy jihatdan yangilanishiga, uning raqobatbardoshligi va barqaror oʻsish surʼatlarini taʼminlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish toʻgʻrisida”gi PQ-96 son Qarori 13.03.2026-yil Manba: <https://lex.uz/docs/-8087560>

2. McCann P. How have place-based policies evolved to date and what are they for now //Background paper for the OECD-EC High-Level Expert Workshop Series on ‘Place-Based Policies for the Future’, Workshop. – 2023. – T. 1. – C. 14.

3. Tatarkin A. I. Self-development of regional socioeconomic systems as the need for Russia’s federal development //Экономика региона. 2013. Выпуск 4. – 2013. – №. 4. – C. 9-26

4. Михайличенко М. Ю. Трансформация парадигмы сбалансированного пространственного развития региона: отечественный и зарубежный опыт //Экономика. Информатика. – 2023. – Т. 50. – №. 4. – C. 768-780.

5. Sadigov A., Nazarov N. Improving the Methodology for Developing a Strategy for Sustainable Development of Regions // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2023. – Vol. 11, № 5. – P. 184–195

6. Khotamov I., Najmiddinov Y. Specific Features of Low-Carbon Development in the Economy of Uzbekistan //Economics and Innovative Technologies. – 2023. – T. 11. – №. 3. – C. 253-261.

7. Ahmedov A., Tursunova D. Reforms in the Regions Are the Main Driver of Sustainable Development // International Journal of Economics, Finance and Sustainable Development. – 2024. – Vol. 6, No. 7. 383–393 p

8. Fayzullayev M., Abdiholiqova G. Promising Directions for the Development of Industrial Sectors in Kashkadarya Region // ACTA NUUZ. – 2025. – Vol. 3, No. 3.2.1. – P. 348–350

9. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Qodirov Abdurashid Madjidovich Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi «Oʻzbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari» ilmiy tadqiqot Markazi sektor mudiri i.f.d., professor / Кадыров Абдурашид Маджидович заведующий сектором Научно-исследовательского центра «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при Ташкентском государственном экономическом университете, доктор экономических наук, профессор. / Abdurashid Madjidovich Kodirov Head of Sector, Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of Uzbekistan's Economy" under the Tashkent State University of Economics, Doctor of Economic Sciences, Professor.

E-mail: kadirovabdurashid.55@gmail.com

ORCID: 0009-0009-7186-3309

2. Vayskulov Ramazon Alisher oʻgʻli Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti / Вайскулов Рамазон Алишер угли базовый докторант Каршинского государственного университета / Ramazon Alisher oʻgʻli Vayskulov Basic Doctoral Student, Karshi State University.

E-mail: romazonvays@gmail.com

ORCID: 0009-0005-7925-9633



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz